

**KETRIN MENSFILD VA ABDULLA QAHHOR NASRIY ASARLARIDA  
AYOL TAQDIRI MASALASI**

*Xakimova Zeboxon Muhammadjanovna*

*Namangan davlat chet tillari instituti 2-bosqich magistratura talabasi;  
To'raqo'rg'on tuman 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi*

**ANNOTATSIYA:** Hozirgi globalashuv jarayonida xalqimizning ma'naviy, siyosiy va diniy savodxonligini yuksaltirish zamonamizning eng muhim talabi bo'lib, bu borada ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada ingliz va o'zbek nasrida ayollar obrazining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolamizda ayol va jamiyat munosabatlari ham turli jihatdan o'rganiladi. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz biz ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o'rtasidagi munosabatdan, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oilada o'rini tahlil qilgan holda ayolning nasrda tasvirlanishiga baho berish mumkin.

**Kalit so'zlar:** hikoya, proza, ayol xarakteri, poetika, ayol va jamiyat, ingliz nasri, timsollar, obraz.

**ABSTRACT:** In the current process of globalization, raising the spiritual, political and religious literacy of our people remains the greatest demand of our time. In this regard, the issue of women is of particular importance. The article deals with the image of women in English and Uzbek prose. Moreover, the article examines the relationship between women and society from different angles. English and Uzbek literature has always been distinguished by the depth of its ideological content, its relentless pursuit of the meaning of life, its humane attitude to man, and the authenticity of its imagery.

**Keywords:** story, prose, female character, poetics, woman and society, English prose, emblems, image.

**АННОТАЦИЯ:** В статье рассматриваются образы женщин в английской и узбекской прозе. Образ женщины в литературе у каждого народа разный, в зависимости от его взглядов. В английской литературе образ женщины тоже со временем менялся. В английской прозе XIX века образ женщины полностью идеализировался писателями-мужчинам. В нашей статье отношения женщины и общества рассматриваются с разных сторон. Английская и узбекская литература всегда отличались глубиной идейного содержания, неустанным поиском смысла жизни, гуманным отношением к человеку, достоверностью образности.

**Ключевые слова:** рассказ, проза, узбекская проза; женский персонаж; поэтика; женщина и общество; английская проза; эмблемы; образ.

**KIRISH.** Ma'lumki, har qanday adabiyot o'z g'oya va personajlari bilan ajralib turadi. Barcha xalqlar adabiyotini kuzatadigan bo'lsak, qadimdan ayol obrazi kulminatsion darajaga ko'tarilganligining guvohi bo'lamiz. Ertaklardan tortib to zamonaviy adabiyotimizdagi Kumushbibiyu Zaynab , Zebi-yu Zabarjadlar qaysidir jihatlari bilan adabiyotimizda milliy o'zligimizni anglatadigan asosiy obrazlar sifatida yashab kelmoqda . "Insonshunoslik bo'lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya'ni ayolni o'rganish, uni kashf etish ilmidir. Kuzatsak eng qadimgi asarlar ham ayolga bag'ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzusining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog'liq" 1 ekanligi barcha davrlar adabiyoti uchun xosdir.

Darhaqiqat, badiiy adabiyotda ayol obrazining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish adabiy jarayonning umumiy qonuniyatlarini, ayniqsa milliy adabiyotlarni o'zaro qiyosiy-tipologik aspektda o'rganishda yordam beradi. Ayol obrazi dunyo adabiyotida, aks etishi alohida mavqega egadir. Uning jamiyatdagi mavqei , u yashagan tarixiy davr bilan alohida bevosita bog'liqdir.

O'zbek va ingliz adabiyotida ayol obrazini tahlil qilar ekanmiz, izgliz adibi Ketrin Mensfild va buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor hikoyalarini tilga olish joizdir. Mensfildning "The little governess", "A cup of tea", "The child who was tired" hikoyalarida ramziylikka alohida e'tibor qaratadi. Qo'llanilgan ko'plab ramziy obrazlar, voqealar borki, ular yozuvchi badiiy niyatini yoritishga xizmat qiladi. Masalan, uning hikoyasi "Kichik hokim" deb nomlanadi, yosh qiz Angliyadan Germaniyaga tungi poyezdda yolg'iz o'zi hamshira bo'lib ishlash uchun ketayotgani bilan boshlanadi. Qolaversa, bu hikoyada qizning yolg'iz, qarindosh-urug'larsiz ketib qolish haqidagi tashvishlari, o'ylari, his-tuyg'ulari ham mahorat bilan ifodalangan. Ko'rinadiki, Mensfild ayollar obrzani yaratishda uning to'laqonli chiqishi yozuvchining iste'dodi va hayotiy tajribasi bilan bog'liq.

Ketrin Mensfild ingliz adabiyotida kichik hikoya janrinig rivojlanishiga katta hissa qo'shgan adiblardan biri hisoblanadi. Rus olimi E.Shore ayollar obrazlarini tasnif qilishni quyidagicha taklif qiladi: malikalar, jodugarlar, farishtalar, yoqimli va jozibalilar mehribon ona xislatli ayollar. Ammo u o'z qarashlarini rus adabiyoti misolida dalillab "..... rus madaniyati va adabiyoti ayol eng yuqori insoniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi", deydi. Ma'lumki, har qanday adabiyot o'z g'oya va personajlari bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, barcha zamonlarda ayol siyomosiga, ayol xarakterini ochib berishga bag'ishlangan asar yaratilgan. Bu esa ayolning jamiyat va insoniyat hayotidagi o'rni, ayol timsolining dolzarbligidan dalolat beradi.

Jamiyatda xotin-qizlarning tengligi, ozodligi uchun erlari bilan tengma –teng ishlashi mavzusi yorqin badiiy shaklda ochiladigan hikoyalardan biri bu Abdulla

Qahorning “Mayiz yemagan xotin “ hikoyasidir. Shu g‘oyaga tish- tirnog‘i bilan qarshi turgan mulla Norqo‘zi paranjisini ochgan xotin-qizlar sha‘niga kecha-yu kunduz bo‘hton to‘qiydi. Bugungi jamiyatimizda ham bunday bevafo ayollar ham uchraydi turadi. Xalqimizda “Sholi kulmaksiz bo‘lmaydi” degan naql bejizga aytilmagan Abdulla Qahhor hikoyalarining yana bir fazilatlarini ta’kidlab o‘tish kerakki, yozuvchi hikoyalarda shaxs taqdiri, muhit sharoit bilan, xalq hayoti bilan mustahkam bog‘liq holda beriladi. Shaxs taqdirining shakllanishi va yo‘nalishini belgilashda bu omillar ham hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Abdulla Qahorning “Nurli cho‘qqilar” hikoyasida Fotima va Zuhraning tarbiyasi va shu tarbiya muhitida shakllangan qizning xarakteri va taqdiri yotadi. Asar qahramonlari Fotima va Zuhra nurli cho‘qqilar tomon intilgan, orzulari biro lam edi. Lekin ularning xarakteri, dunyoqarashi va intilishlari bir-biridan umuman farq qiladi. Zuhra to‘g‘risida kitobxon ma‘lum tasavvurlar uyg‘otib, Fotimaga yuzlanadi. Fotima xarakteri Zuhra xarakterining aksidir. Fotima biroz bo‘shroq Zuhraga nisbatan uning istarasi so‘niqroq ko‘rinardi. Ota-onasi Fotimani "noshu-notavon", "anqov-lakalov" ligi uchun koyigani koyigan. Qilg‘iliqni doim Zuhra boshlaydi-yu, lekin hamma ta'na-dashnom gaplarni Fotima eshitadi. Fotimani yozuvchi sabr-toqatli obraz sifatida gavdalantirib beradi. Chunki oilada ota-ona farzandlarini teng ko‘rmaganligi oqibatida Fotima bilan Zuhra ikki xil xarakterda namoyon bo‘ladi.

**XULOSA XULOSA** Har bir yozuvchi turli maqsadda hikoya yozishi mumkin. Masalan, ba’zi yozuvchilar o‘z o‘quvchilarini o‘z asaridagi qahramonlar harakatlaridan saboq olishga, hayotda o‘zini ulardek tuta olishga o‘rgatish uchun yozsalar, boshqalari esa, aksincha, o‘z qahramonlarining xatolaridan xulosa chiqarib, o‘z asaridagi qahramonlarning xatolaridan xulosa chiqaradilar. o‘z kamchiliklarini hayotlarida takrorlash. Ketrin Mensfild va A.Qahhor yuqorida tilga olingan hikoyalarni kitobxonlar o‘qib chiqsin, qahramonlar xatolaridan xulosa chiqarsin va hayotlarida takrorlanmasin, degan maqsadda yozgan. Boshqa tomondan, Abdulla Qahhor qahramonning fidoyiligini ko‘rsatish uchun “Dahshat”ni yaratdi va aslida undan ibrat olishimiz kerakligini o‘rgatmoqchi edi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ikkala adib ham o‘z hikoyalarini mohirona va ta’sirli yoza olgan. Shu bois, bu hikoyalar bugun ham adabiyot ixlosmandlari tomonidan sevilib o‘qiladi, deyish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. Конференции, 1(2).

3. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. Scientific journal of the Fergana State University, 1(3), 111-112.
4. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS “THE PICTURE OF DORIAN GRAY” AND “THE MAN AT THE MIRROR”. Theoretical & Applied Science, (5), 590-592.
5. Shoxruxbek, M., Qosimov, A., Abdurashidovich, Q. A., Murodilovna, O. G., & Umurzakov, R. (2022). THE INWARD WORLD OF AN ARTISTIC DEPICTION OF THE CONTRADICTIONS.
6. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.